O‘zganing mulkini kompyuter texnikasi vositalaridan foydalangan holda talon-taroj qilish: jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlar

Adxamov Nursulton Akmaldin o‘g‘li
Toshkent davlat yuridik universiteti
magistratura bosqichi talabasi
Elektron pochta manzili: nursultonadxamovs@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisda O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat qonunchiligini rivojlantirish sharoitida kompyuter jinoyatlari bilan bog‘liq holatlarning oldini olish uchun qilinishi kerak bo‘lgan masalalar tahlilqilingan. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar shiddat bilan rivojlanib bormoqda va buning natijasida insoniyat juda ko‘plab qulayliklar va imkoniyatlarga ega bo‘lmoqda. Ammo masalaning boshqa tarafi ham bor – raqamli texnologiyalar rivojlanishi ushbu sohadagi jinoyatlar sonining ham ko‘payishiga olib kelmoqda. Tezisda aynan o‘zgalarmulkini kompyuter texnikasi vositasidan foydalanib talon-taroj qilish qilmishlarining jinoyat-huquqiy tadqiq qilish masalasi bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli texnologiya, talon-taroj, jinoyat, kompyuter firibgarligi, kriminologiya, kiberjinoyat, Jinoyat kodeksi, o‘g‘rilik.

Bugungi globallashuv davrida kundan kun yangi texnologiyalar, raqamli qurilmalar, dasturiy ta’minotlar, turli aqlli texnologiyalar yaratilmoqda. Bu esa o‘z navbatida ushbu raqamli texnologiyalar bilan bog‘liq munosabatlarni yanada murakkablashtirmoqda. Mazkur jarayonda bizdan ushbu yangi raqamli munosabatlarga to‘g‘ri moslashish, shuningdek, ushbu raqamli munosabatlarni tartibga soluvchi raqamli huquqlar asoslarini yaratish va mavjudlarini takomillashtirib borish talab etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020 yildagi PF-6079-sonli “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida ta’kidlanganidek, “Yurtimizda raqamlashtirilgan iqtisodiyotni jadal rivojlantirish, barcha sohalar va tarmoqlarda, eng birinchi navbatda, davlat boshqaruvi, sog‘liqni saqlash, ta’lim va qishloq xo‘jaligida zamon talabiga javob beradigan axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, elektron hukumat, ya’ni raqamli davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, axborot texnologiyalari va dasturiy mahsulotlarning mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, mamlakatimizning barcha hududlarida IT-parklarni tashkil qilish, shuningdek, sohani malakali, mutaxassis kadrlar bilan ta’minlashni ko‘zda tutuvchi 220 dan ortiq ustuvor loyihalarni amalga oshirish boshlangan.”[1]

Hozirgi To‘rtinchi sanoat inqilobi davrida butun dunyo bo‘ylab har bir sohada raqamli qurilmalardan foydalanishga o‘tilmoqda. Jahon iqtisodiy forumi asoschisi va prezidenti Klaus Shvab ta’kidlaganidek, raqamli texnologiyalarning rivojlanishi bosqichi hech qachon ortga qaytmaydigan jarayon hisoblanadi va bu jarayonlarga dunyo mamlakatlari o‘zaro hamkorlik asosida moslashish muhim hisoblanadi.[2] Texnologiyalarning rivojlanishi esa, o‘z navbatida, kiberjinoyatlarning soni tobora ortib borishiga va ularning yangidan yangi turlari vujudga kelishiga sabab bo‘lmoqda.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020 yildagi PF-6079-sonli “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni

[2] To‘rtinchi sanoat inqilobi / Klaus Shvab, tarjimon Sarvinoz Qosimova. – Toshkent. NIHOL, 2022. – 248 b.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, kiberjinoyatlar uzoq vaqtdan beri davom etayotgan mahalliy va uyushmagan jinoyat sifatidagi rolini yo‘qotib bormoqda. U iqtisodiyotning bir tarmog‘iga kirib, tezda to‘laqonli sanoatga aylanib bormoqda. Bugungi kiberjinoyat iqtisodiyotining eng qiziqarli jihatlaridan biri uning qanday tabaqalashtirilganligidir:

- ✓ yirik o‘g‘irlik jarayonlari deyarli transmilliy korporatsiyalar kabi qurilgan;
- ✓ kichikroqlari esa bitta egasi bo‘lgan kichik biznes kabi qurilgan.

Yirik operatsiyalar yiliga 1 milliard dollardan ortiq foyda keltirishi mumkin, kichikroq operatsiyalar esa 30-50 ming dollarni tashkil qiladi.

Oxirgi ma'lumotlarga ko‘ra, kiberjinoyatchilikning o‘rni jahon bozorida 1,5 trillion dollarni tashkil etadi.[3] Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, bu ko‘rsatkich Kanada yoki Avstraliyaning 2017-yildagi yalpi ichki mahsulotiga teng miqdor hisoblanadi. Qo‘shma Shtatlar o‘z mamlakati infratuzilmasini tiklash rejasini aynan ushbu miqdor bilan bir xil baholaydi. Ba’zi ma'lumotlarga ko‘ra, shaxsiy kiberjinoyatchilar o‘g‘irlangan ma’lumotlar bilan savdo qilish orqali yiliga yarim million AQSh dollarigacha daromad olishlari mumkin.

Bevosita mamlakatimiz misolida ushbu jinoyatlar miqdoriga nazar tashlaydigan bo‘lsak, O‘zbekistonda so‘nggi uch yil ichida kiberjinoyatlar soni bir necha barobar oshgan.

2022-yil 16-iyunda IIV Kiberxavfsizlik markazi xodimlari ishtirokida o‘tkazilgan matbuot anjumanida ma’lum qilinishicha, so‘nggi 3 yil ichida kiberjinoyatlar soni sezilarli darajada oshgan. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda 25 milliondan ortiq internet foydalanuvchisi bor. “Tahlillarning natijasi shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunga kelib respublikada kiberjinoyatchilikning o‘sish tendentsiyasi ro‘y bermoqda. Jumladan, quyidagi kiberjinoyatlarning bir qancha turlari mamlakatimizda kuzatilmoqda:

- ✓ mashhur brendlarning nomidan elektron pochta xabarnomalarini, shuningdek, turli xizmatlar sohasida shaxsiy xabarlarni, masalan, ijtimoiy tarmoqlar ichida yoki banklar nomidan, to‘lovlarni amalga oshirish, yutuqlarni taqdim etish bahonasida (fishing) ommaviy tarzda jo‘natish orqali foydalanuvchining maxfiy bo‘lgan ma’lumotlariga kira olish huquqiga ega bo‘lish;
- ✓ shaxsiy bo‘lgan ma’lumotlarga ega chiqish va oshkor qilish tahdidi bilan tovlamachilik (kiber tovlamachilik);
- ✓ ijtimoiy tarmoqlar orqali zo‘ravonlik, haqorat (kiberbulling) yordamida qo‘rqitish.”[4]

Agar 2020-yilda ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan kibermakonda 106 ta jinoyat qayd etilgan bo‘lsa, 2021-yilda ularning soni 2281 taga yetgan. 2022-yilda esa 4332 ta shunday holat aniqlangan. Kiberjinoyatlarning asosiy qismini bank kartalaridan pul o‘g‘irlash tashkil etadi – 2747 ta holat.

Prezident huzuridagi Strategik va mintaqaviy tadqiqotlar instituti direktori Eldor Aripovning aytishicha, terrorchilar tashviqot faoliyatining yangi bosqichiga ko‘tarilgan.

“Axborot xavfsizligining ta’minlanishi alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ShHTga a’zo bo‘lgan davlatlardan axborot sohasiga oid tahdidlar va zamonaviy chaqiriqga qarshi kurashishning muvofiqlashtirilgan mexanizmlari ustida ishlash va ishlab chiqishni talab qiladi.”[5]

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 65-moddasiga ko‘ra, “Fuqarolar farovonligini oshirishga qaratilgan O‘zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi.

---

[3] Bromium - axborot xavfsizligi sohasida virtual apparat ishlab chiqaruvchisi

[4] https://www.csec.uz [Kiberxavfsizlik markazi rasmiy web-sayti]

[5] TOSHKENT, 2022-yil, 6-sentabr – Sputnik

Xususiy mulk daxlsizdir. Mulkdor o‘z mol-mulkidan qonunda nazarda tutilgan hollardan va tartibdan tashqari hamda sudning qaroriga asoslanmagan holda mahrum etilishi mumkin emas.”[6]

Konstitutsiya darajasida mustahkamlab qo‘yilgan mulk daxlsizligi dolzarb masala hisoblanadi. Xususiy mulk davlat tomonidan muhofaza qilinadi. Biroq, o‘zgalar mulkini o‘z foydasi, boshqa shaxslar foydasiga qonunga xilof tarzda va bepul o‘ziga qaratib olish tobora osonlashib bormoqda. Bu ham esa kompyuter texnologiyalari va, umuman olganda, raqamli texnologiyalarining jadal rivojlanishi bilan bog‘liq hisoblanadi. Shu bois kompyuter jinoyatchiligini oldini olish, ularga qarshi samarali kurashish muhim ekanligining dalolatidir.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalarining shiddat bilan rivojlanishi zamonida kompyuter firibgarligi jinoyatlari soni kun sayin oshib bormoqda. Ushbu vaziyatda fuqarolarga millionlab dollar miqdorida moliyaviy zarar yetmoqda. Qonunchilikni takomillashtirish, jinoyat qonunchiligiga yangi normalar qo‘shish va ularning to‘g‘ri qo‘llanilishi masalalarini nazoratga olish bugungi jinoyat huquqi talabi. Ayni shu yo‘llar orqali kompyuter jinoyatlarini, ayniqsa, mulkni kompyuter vositalaridan foydalanib talon-taroj qilish jinoyatlarining oldini olish muhim ahamiyatga ega.

Bizningcha, birinchidan, Jinoyat kodeksiga kompyuter talon-taroji jinoyatlarini umumlashtirgan yangi norma qo‘shish va unga to‘g‘ri sharh berish; ikkinchidan, jinoyat ishlarini yuritishning barcha bosqichlari uchun majburiy bo‘lgan “Raqamli etik qoidalar”ni joriy etish; uchinchidan, raqamli tergovga oid xalqaro ISO qoidalarini mamlakatimiz qonunchiligiga joriy etish masalasini ko‘rib chiqish bugungi kundagi raqamli texnologiyalar sohasidagi jinoyatlarning oldini olish va ularga adolat bilan hukm chiqarish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020 yildagi PF-6079-sonli “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni;
2. To‘rtinchi sanoat inqilobi / Klaus Shvab, tarjimon Sarvinoz Qosimova. – Toshkent. NIHOL, 2022. – 248 b.;
3. Bromium - axborot xavfsizligi sohasida virtual apparat ishlab chiqaruvchisi;
4. https://www.csec.uz [Kiberxavfsizlik markazi rasmiy web-sayti];
5. TOSHKENT, 2022-yil, 6-sentabr – Sputnik;
6. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan;
7. Шеслер А. Мошенничество: проблемы реализации законодательных новелл // Уголовное право. 2013. № 2. С. 67–71.;
8. Комаров А.А. Об уточнении понятия «компьютерное мошенничество» в свете законодательных инициатив Верховного Суда РФ // Юрист. 2013. № 17. С. 33–36.

[6] Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan